

## Chegaradan o'tish joylari

Yevropa Ittifoqiga a'zo davlat chegarasini kesib o'tganingizdan keyingi birinchi to'xtash joyining boshida, siz kirayotgan mamlakatning belgisini qo'lda yozib oling.

Mazkur birinchi bekat chegarada yoki undan keyingi eng yaqin to'xtash joyida bo'lishi kerak.

Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatning chegarasini parom yoki poyezdda kesib o'tsangiz, mamlakat belgisini portda yoki kelish stansiyasida kiritishingiz kerak.

## Kunning boshlaniш/tugash joyi

Kunlik ish vaqt boslangan va tugagan mamlakatlarning belgisini yozib olishingiz talab qilinadi.

## Rejimni almashtirishdan foydalanish

Sizga nisbatan yuk yoki yo'lovchi tashuvchi avtomobil haydovchilarining ish soat qoidalari amal qilsa, barcha harakatlarni qayd etish uchun taxografdan to'g'ri foydalanishingiz kerak.

### Yo'lovchi tashishda "12 kun qoidasi" amal qiladi.

Muayyan vaziyatlarda, bitta xalqaro safarni amalgalashirayotgan haydovchilar uchun haftalik dam olish vaqtini 12-kunning oxirigacha qoldirilishi mumkin.

Avtomobil analog taxograf bilan jihozlangan bo'lsa, bu istisno tatbiq qilinmaydi.

Dam olish quyidagicha o'tkazilishi kerak:

- safardan kamida 45 soat oldin;
- safardan keyin kamida bitta odatiy va bitta qisqartirilgan haftalik dam olish vaqtini (69 soat) yoki ikkita haftalik odatiy dam olish vaqtini (45 soat + 45 soat).

Qisqartirilgan haftalik dam olish vaqtini olsangiz, ushbu qisqartirish vaqtini uchinchi hafta oxirigacha boshqa dam olish vaqtiga biriktirilgan vaqtida olingen dam olishga teng vaqt bilan qoplanishi lozim.

Bitta haydovchi boshqaruvidagi avtomobil: agar soat 22.00 dan 6.00 gacha harakatlansangiz, tanaffussiz ko'pi bilan 3 soat harakatlanishingiz mumkin.

HP-08-22-101-UZ-C

Yevropa Mehnat Boshqarmasi

# Haydash va dam olish vaqtini qoidalari



Yevropa mehnat boshqarmasi

Landererova 12, 811 09  
Bratislava - Slovakiya  
info@ela.europa.eu

[www.ela.europa.eu](http://www.ela.europa.eu)



Your Europe portalida  
batafsil tanishing

© Yevropa mehnat boshqarmasi, 2022-yil

Yevropa mehnat boshqarmasi (ELA) yoki ELA nomidan ish ko'rayotgan har qaysi shaxs mazkur hujjatdagи ma'lumotlardan foydalanilganlik uchun javobgar hisoblanmaydi.

Manbasi ko'satilgan holatda qayta chop etishga ruxsat etiladi.

Mualliflik huquqiga ELA egalik qilmaydigan har qaysi fotosurat yoki boshqa materiallardan foydalanish yoki qayta chop etish uchun bevosita muallif huquqi egasining ruxsati talab qilinadi.

Tasvirlarning mualliflik huquqi: © iStock.com/Hilch

Lyuksemburg: Yevropa Ittifoqining nashrlar byurosini, 2022-yil

Print ISBN 978-92-9464-870-9 doi:10.2883/79526 HP-08-22-101-UZ-C

PDF ISBN 978-92-9464-866-2 doi:10.2883/928793 HP-08-22-101-UZ-N



## Dam olish vaqtি qoidalari

### Odatiy dam olish vaqtি

Odatiy dam olish vaqtি kamida 11 soatni tashkil qiladi.

Uni ikki qismga bo'lish mumkin:

1. kamida 3 soat davom etadigan bitta uzlusiz dam olish vaqtি va
2. kamida 9 soat davom etadigan bitta uzlusiz dam olish vaqtি.

### Qisqartirilgan dam olish vaqtি

11 soatdan kam bo'lib, kamida 9 soatni tashkil qiladi. Har qaysi ikkita haftalik dam olish vaqtি orasida ko'pi bilan uchta qisqartirilgan kunlik dam olish vaqtini olish mumkin.

Oldingi kunlik yoki haftalik dam olish vaqtি tugagandan keyin 24 soat ichida kunlik dam olish vaqtini olgan bo'lishingiz kerak.

Kunlik yoki haftalik dam olish vaqtidan keyin yana ishga kirishganingizda yangi 24 soatlik vaqt boshlanadi.

### Bir nechta odam bilan ishlaganligi kunlik dam olish

Bir nechta odam bilan birga ishsangiz, kunlik yoki haftalik dam olish vaqtি tugagandan keyin 30 soat ichida kamida 9 soat davom etadigan yangi kunlik dam olish vaqtini olishingiz kerak. Bu har bir haydovchiga tegishli.

### Haftalik dam olish

Odatiy haftalik dam olish vaqtি kamida 45 soatni tashkil qiladi. Qisqartirilgan haftalik dam olish vaqtি kamida 24 soatni, ammo 45 soatdan kam vaqtini tashkil qiladi.

Haftalik dam olish vaqtি oldingi haftalik dam olish vaqtidan kamida 144 soat (6 x 24 soat) o'tgandan keyin boshlanishi kerak.

Ketma-ket 2 haftada (dushanbadan yakshanbagacha) kamida:

- ikkita odatiy haftalik dam olish vaqtini (har biri kamida 45 soat) yoki
- bitta odatiy haftalik dam olish vaqtini (kamida 45 soat) va bitta qisqartirilgan dam olish vaqtini (kamida 24 soat) olishingiz kerak.

Agar qisqartirilgan dam olish vaqtini olsangiz, bu qisqartirilgan vaqt qisqartirilgan haftadan keyingi uchinchli haftaning oxirigacha kamida 9 soat qolgan boshqa dam olish vaqtiga biriktirilgan holda mutanosib dam olish vaqtini olish orqali qoplanishi lozim.

## Haydash vaqtি qoidalari

### Kunlik haydash vaqtি

Ko'pi bilan 9 soat. Haftasiga ikki marta 9 soatlik vaqtдан o'tishingizni, bunda 10 soatdan oshirmsligingiz mumkin.

### Haftalik/ikki haftalik haydash

1 haftada ko'pi bilan 56 soat. 2 hafta davomida 90 soatdan ko'p emas.

### Tanaffus

4,5 soat haydagandan keyin kamida 45 daqiqa tanaffus qilishingiz kerak (agar dam olish vaqtি olmasangiz).

Tanaffus ikki qismga bo'linishi mumkin va 4,5 soat haydagandan keyin qilinishi kerak. Tanaffus ikki qismga quyidagicha bo'linadi:

1. birinchi qism uchun kamida 15 daqiqa va
2. ikkinchi qism uchun kamida 30 daqiqa.

## Xalqaro yuk tashuvlarida ishlayotgan haydovchi bo'lsangiz:

- Ketma-ket 4 hafta ichida kamida to'rtta haftalik dam olish vaqtি olishingiz sharti bilan chet elda ketma-ket ikkita qisqartirilgan haftalik dam olish vaqtini olishingiz mumkin;
- Mazkur dam olish vaqtalarining kamida ikkitasi odatiy haftalik dam olish vaqtি bo'lishi lozim;
- Ketma-ket ikkita qisqartirilgan haftalik dam olish vaqtidan keyin, ish beruvchingiz ishingizni avvalgi bobda (1- va 2-bandlar) ko'rsatilgan joylarning biriga odatiy haftalik dam olish vaqtining keyingi haftasiga kompensatsiya sifatida 45 soatdan uzoq muddatga qaytishingizni tashkillashtirishi kerak;
- Kompensatsiya keyingi haftadagi odatiy haftalik dam olishdan oldin darhol olinishi kerak.



## Mobililik paketi tomonidan 2020-yil 20-avgustda qabul qilingan haftalik dam olishning qo'shimcha qoidalari

### Haftalik dam olishni avtomobilda o'tkazish mumkin emas

- Ish beruvchi dam olishingiz mumkin bo'lgan joydagи mos uyqu va sanitariya sharoitlariga ega yashash joyining xarajatlarini to'lab berishga majbur.
- Ish beruvchi ketma-ket 3 yoki 4 haftaning har bir davrida (ikki marta ketma-ket qisqartirilgan haftalik dam olganingizga qarab) haftalik dam olishingiz uchun quyidagi ikkita joydan biriga qaytishingizga ruxsat berishi shart:
  1. Ish beruvchingizning siz bo'lib turgan Yevropa Ittifoqining a'zo davlatidagi amaliyot markazi; yoki
  2. Yashash joyingiz, agar u ish beruvchi joylashgan joydan farq qilsa.

## Parom/poyezd sababli uzilishlar

Parom yoki poyezdda tashib ketilayotgan avtomobilga hamrohlik qilsangiz, odatiy kunlik yoki qisqartirilgan haftalik dam olish vaqtি to'xtatilishi mumkin.

- Sizga jami 1 soatdan oshmaydigan ikkita tanaffus olishga ruxsat beriladi.

Mazkur qisqartirilgan haftalik dam olish vaqtি mobaynida uyqu kabinasida, yotoqda yoki kushetkada yotish imkoniga ega bo'lishingiz lozim.

Mazkur istisno, safar kamida 8 soatga rejalashtirilganda va haydovchi uyqu kabinasida yotish imkoniga ega bo'lganda, haftalik odatiy dam olish vaqtleri uchun amal qiladi.

**Haftalik odatiy dam olish vaqtining qismini parom/poyezdga chiqishdan oldin va/yoki parom/poyezddan tushganiningizdan keyin avtomobilda o'tkazishingiz mumkin emas.**